O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

8. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(10), 236-242.

UCH MUSHTARAK ASAR

Xurramova Maxliyo Bahodir qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Maqolada uch didaktik asar Imom al-Buxoriy Hadislari, Abay “Nasihatlar”i va Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi mushtarak jihatlarga e’tibor qaratilgan. Bu uch manbani adabiyot darslarida o‘rganish bo‘yicha metod va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hadis, aloqador, asar, metod, texnologiya, ta’lim, xulosa, tadqiqot, natija, sharh.

Inson ma’naviyatini shakllantirishda didaktik xarakterdagi, axloqiy-ta’limiy asarlarning o‘rni beqiyos. Biz tadqiqot mavzusi sifatida uch didaktik xarakterdagi asar: Buxoriy Hadislari, Kaykovus “Qobusnoma”si va Abay “Nasihatlar”ini tanladik. Bu uch asarni qiyosiy tahlilda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari o‘qitish tadqiqotimizning asosiy maqsadidir.

Uch ijodkor Imom al-Buxoriy, Abay va Kaykovus hayoti va ijodiga aloqadaor qiziqarli ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda beriladi:

Buxoriy yo’li Kaykovus yo’li Abay yo’li

Bu metod orqali ya’ni uch yo‘l orqali uch ijodkor asarlari qisman yoritiladi, hayoti davomida o‘rnak olarli holatlarga diqqat qaratiladi.

B

Abu Abdulloh Muhammad Abu Hasan Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug’iyra ibn Ahnaf Yazdabih al-Buxoriy [4, B.142.] 870-yilda Buxoroda dunyoda kelgan. U kishi yetim bo’lib o’sdilar. 9 yoshga yetganda Qur’oni Karimni to’laligicha yod oldilar. Hadis eshitishni xush ko’rardilar, voyaga yetgunlariga qadar o’n mingdan ziyod hadisni yod bilar edilar.

Homid ibn Ismoil aytadilar: “Buxoriy bilan dars olardim. Biz har bir hadisni yozib borardik. Buxoriy esa yozmas edilar. Biz undan “Nega yozmaysiz?” deb so’rasak, u kishi “Qani, yozgan narsalaringni ko’rsatinglar-chi”, dedilar. Biz ko’rsatganimizda, biz yozgan hadislarni va unga yana 15 000 hadis ziyoda qilib, yoddan aytib berdilar”.

K

XI asr 82-83-yillarida G’arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o’g’li Gilonshohga bag’ishlab “Nasihatnoma” yaratadi. Davr an’anasiga moslab, podshoh bobosi Shamsul-maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” tarixiga bag‘ishlangan.

“Qobusnoma” 1860-yilda o’zbek tiliga ilk bora Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. 1967-yilda uncha katta bo’lmagan nusxada o’zbek

kitobxonlari qo’liga yetib borgan. XI asrning 82-83-yillarida G’arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus Ibn Iskandar o’g’li Gilonshohga bag’ishlab, bir asar yaratadi. Davr an’anasiga ko’ra uni bobosi podshoh Shamsul maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb atagan. “Qobusnoma”ning o’zbek tiliga tarjima qilinishida o’sha davrda 16 yoshli shahzoda Muhammad Rahimxon Feruzning ham xizmatlarini ham alohida ta’kidlab o’tish lozim. Ogahiy o’z shogirdi Muhammad Rahimxon haqida gapira turib, uning “Bul nusxani turkiy tili bila tarjima qil, toki turk tavoyifining avomi ham shu pandlardan bahra olg’ay va bizning otimiz, sening so’zing olam inqirozig’acha zamon avroqida boqiy va yodgor qolg’ay ”.

A Abay (1845–1904) Abay (Ibrohim Qo‘nonboyev) – qozoq adabiyotining yorqin vakili, ma’rifatparvar shoir, o‘qituvchi, faylasuf va bastakor. U 1845-yili hozirgi Qozog‘iston hududida tug‘ilgan. Dastlabki bilimni uyida olgan, keyin esa bir vaqtning o‘zida madrasa va rus maktabida o‘qigan. Abay arab, fors kabi sharq tillarini yaxshi bilgan. Alisher Navoiy, Jomiy va boshqa sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodini sevib mutolaa qilgan. [1, B.17.]

Allomalar hayoti va ijodi haqida yetarli darajada ma’lumot berilgach, biz murojaat qilayotgan uch manba “Hadislar”, “Qobusnoma” va “Nasihatlar”dan ma’no-mazmun jihatidan o’xshash hadis, hikmat, hikoyalar keltiriladi.

Bularga kirishishdan avval esa o’quvchilarda mas’uliyat paydo qilish maqsadida quyidagi hadis o’qib eshittiriladi va sharhlanadi:

Ibn Umardan rivoyat qilinadi:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

“Barchangiz mas’uldirsiz va o’z mas’uliyatingizdan so’ralursiz.

Omonatdor mas’uldir. U o’z mas’uliyatidan so’ralur.

Er kishi ahli baytida mas’uldir va u o’z mas’uliyatidan so’ralur.

Ayol kishi erining uyida mas’uldir va u o’z mas’uliyatidan so’ralur.

Ogoh bo’lingki, barchangiz mas’uldirsiz va barchangiz o’z mas’uliyatingizdan so’ralursiz”. [5, B.391.]

Ilmiy tadqiqot davomida uch asardagi o‘xshash mavzular o‘rganib chiqildi va bir-biriga qiyoslash uchun ma’lum o‘rinlar ajratib olindi. Buxoriy Hadislarida Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.vning mehmon haqidagi so‘zlari, “Qobusnoma”da mehmon va mezbon haqlari haqidagi hikoyat keltirildi. Abayning mehmon, inson haqidagi umumiy fikrlari tanlab olindi. Bu qiyosiy maatnlar “UCH H H H” metodi orqali tahlil etiladi.

“Uch H H H” da o’qiymiz:

Hadis

Hikmat

Hikoyat

Birinchi H da o‘quvchi Hadislardan mehmon haqida, mehmon kutish odoblari haqida bilib olganlarini, ikkinchi H da esa mehmonni hurmatlash hikoyat orqali mustahkamlab qo‘yilganini, uchunchi H da Abay Qo‘nonboyevning butun insoniyatga qarata aytgan fikrlari bilan xulosaga keldilar. Metodning “UCH H H H ” deb nomlanishiga sabab uch janr Hadis, hikmat va hikoyat sabablidir.

Dars jarayonlarida ko‘p uchraydigan holatlardan biri ko‘pchilik o‘quvchilar dars davomida fikrlarini ochiq bildira olmaydilar. Tortinchoqlik, fikrlarim xatomikin, kabi

o‘ylar ularga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli bu jarayonda “Aysberglarni kashf etamiz” metodidan foydalandik. Bu metodda o‘quvchilarning har birlaridan uch asardan parchalar haqida mustaqil fikrlarini bildirishlari so‘raldi. Bu metodni darslar davomida doimiy qo‘llash og‘zaki nutqida muammo bo‘lgan, fikrlarini ifodalashga tortinadigan o‘qquvchilar uchun foydali bo‘ladi.

Biz aysberg tushunchasidan ijobiy ma’noda foydalandik. Aysberg haqida quyidagicha ma’lumot kelgan: Aysberg (nemischa Eisberg), bu so‘z skandinaviyaliklar tiliga mansub, muztog – okean, dengiz va muzlikka yaqin ko‘llarda suzib yuruvchi yoki sayozliklarga o‘tirib qoluvchi katta muz tog‘i . Biz bu aysbergni inson miyasida mavjud bo‘lgan, ammo yuzaga chiqa olmagan qiyosida oldik va kashf etdik.

Bugungi kunda adabiyotni, badiiy asarni yangi zamonaviy tajribalar, qiyoslashlar va yangi metodlar bilan o‘qish, o‘rganish, tahlil qilish va hayotimizga tatbiq etish zamon talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kaykovus 2018. (Qobusnoma). Toshkent: “O‘qituvchi” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI. 17-b.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. TOSHKENT: 2016
3. Zulxumor Mirzayeva. Komil Jalilov. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. Toshkent: Respublika ta’lim markazi 2022. 74-b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-nashr” TOSHKENT 2022. Hadis va hayot 1-juz. 142-b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad. Yusuf. Odoblar xazinasi. “Hilol-nashr” TOSHKENT 2019. 391-b.

KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Raxmatov Alisher
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Kasbiy va kommunikativ kompetentsiya turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishning muhim tarkibiy qismidir, ayniqsa samarali muloqot va maxsus bilimlar yuqori baholanadigan zamonaviy globallashgan dunyoda. Ushbu maqola ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishni o'rganadi, nazariy asoslar, amaliy strategiyalar va muammolarni ta'kidlaydi. Mavjud adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali maqola ta'lim va kasbiy sharoitlarda kasbiy va kommunikativ kompetentsiyani oshirishning samarali metodologiyalari haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, tajribaviy o'rganish, hamkorlikda o'rganish, reflektiv amaliyot.

Kirish